

## AMIR TEMUR TUZAYOTGAN BUYUK DAVLAT VA UNING XONLIKLAR BILAN MUHORABASINING TARIXIY AHAMIYATI

*Yuldashev Jamshid Nabijonovich*

*Furqat tuman kasb hunar maktabi Tarix fani o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixida Oltin O'rda xonligi bilan bo'lgan muhorabalar alohida o'rin egallaydi. Amir Temur kuchayib borayotgan Oltin O'rda xonligi o'z mamlakatiga jiddiy xavf solishini yaxshi tushungan. U ochiqdan-ochiq xiyonat yo'liga o'tgan To'xtamish bilan uch marotaba harbiy to'qnashuvda bo'lib, uni butunlay tor-mor etadi. Aslini olganda, Oltin O'rda xonligini zabt etish uning rejasida yo'q edi. Ammo u kelajakda Oq O'rda va Oltin O'rda birlashib ketsa, o'rta chiqadigan kuchli davlat o'zi uchun nihoyatda xavfli bo'lishini yaxshi anglardi. Shuning uchun mazkur hududda o'ziga sadoqatli hukmdorni xon ko'tarib, uni itoatda saqlash vositasida o'z mamlakatiga shimoldan bo'ladigan xavfni bartaraf etishni rejalashtirgandi.

**Kalit so'zlar:** To'xtamish, Oq O'rda, Amir Temur, Oltin O'rda, Nizomiddin Shomiy, uch yillik yurish, Evropaning xaloskori, muhoba.

**Kirish:** Amir Temur Yaqin Sharqda harakat qilar ekan, har doim Movarounnahr uchun ham, ayni zamonda yangi zabt etilgan Ozarbayjon va Eron uchun ham Shimoldagi qudratli Oltin O'rda xonligi katta xavf solib turishini yaxshi bilar edi. Ayniqsa, yosh, jangari xon To'xtamish ochiqdan-ochiq ulug' davlatchilik siyosati yurgizib, Sohibqironning harbiy-siyosiy raqiblari bilan birlashishga intila boshlagani va «Mudofaa ittifoqi»ga qo'shilib orqadan zarba berishga tayyorgarlik ko'rayotgani tufayli bu xavf kuchayib ketgan edi. Bu ayyor raqibni bartaraf etmasdan turib, Yaqin Sharq siyosatida muvaffaqiyat qozonish qiyin edi. Shuning uchun ham mazkur davr voqealarini tahlil etganda «Oltin O'rda tuguni» haqida qisqacha bo'lsa-da to'xtalish zarur deb hisoblaymiz. Ma'lumki, 1386–88 yillardagi “uch yillik yurish” paytida Ozarbayjon va Fors viloyatlari qaytadan egallanadi. Aslida bu yurishga ham ma'lum siyosiy shart-sharoitlar sabab bo'lganini ko'ramiz. Amir Temur 1383 yilda Sultoniyadan orqaga qaytib, Samarqandga keladi. Sohibqironning yo'qligidan foydalangan To'xtamish o'z homiysiga vafosizlik qilib, Darband orqali 90 ming qo'shin bilan Tabrizga bostirib kiradi. To'xtamishning bu qaltis harakati Oltin O'rda bilan mamluklar o'rtasida azaldan mavjud bo'lgan harbiy-siyosiy rejani bajarish yo'lidagi jiddiy qadam edi. Tabriz shahri hamda Ozarbayjondagi boshqa ko'plab shaharlar talon-taroj etiladi. Bu haqda Nizomiddin Shomiy shunday yozadi: “Podshoh To'xtamish noloyiq xatti-harakat qilib, to'qqiz tumanga yaqin katta lashkarlarni

Tabrizni zabt etish uchun jo‘natdi. Ul askarlarning ko‘pi dinsiz kofirlar edi. Ular qish faslida Tabrizga yetib keldilar va shahar atrofini o‘rab oldilar... Oxir-oqibat, makru xiyla hamda kofirlar lashkarlarining shavkatu-quvvati bilan g‘olib keldilar. Shaharni talon-taroj qildilar. Jabru jafu va buzg‘unchilik chegarasiga neki sig‘sa, barini ishga soldilar... Necha yillar mobaynida shunday bir shaharda to‘plangan mol-mulk, nafisuqimmatbaho buyumlar va zahiralardan o‘n kun ichida biror asar qoldirmadilar”

#### MUHOKAMA (DISCUSSION)

To‘xtamish siyosatida Kavkazorti, jumladan Janubiy Ozarbayjon va Eronni egallab, bu hududda mustahkamlanib olgach, janubdan ham Movarounnahrda tahdid solish rejasi mavjud edi. Muhim savdo yo‘li ustida joylashgan mazkur o‘lkalar ham iqtisodiy, harbiy-strategik jihatdan katta ahamiyatga ega edi. To‘xtamish bu hududlarni qo‘lga kiritib, Mamluklar davlati bilan birga butun Yaqin Sharq va O‘rta Sharqda hukmron bo‘lib qolardi. Shuning uchun ham u puxta tayyorgarlik ko‘rib, katta qo‘shin to‘plagan va Darband darasini mustahkam qarorgohga aylantirgan edi. Ko‘ramizki, Amir Temur kuchayib borayotgan Oltin O‘rda xonligi o‘z mamlakatiga jiddiy xavf solishini yaxshi tushungan. U ochiqdan-ochiq xiyonat yo‘liga o‘tgan To‘xtamish bilan uch marta harbiy to‘qnashuvda bo‘lib, uni butunlay tor-mor etadi<sup>9</sup>. Aslini olganda, Oltin O‘rda xonligini zabt etish uning mo‘ljalida yo‘q edi. Ammo u kelajakda Oq O‘rda va Oltin O‘rda birlashib ketsa, o‘rtaga chiqadigan kuchli davlat o‘zi uchun nihoyatda xavfli bo‘lishini yaxshi anglardi<sup>10</sup>. Shuning uchun mazkur hududda o‘ziga sadoqatli hukmdorni xon ko‘tarib, uni itoatda saqlash vositasida o‘z mamlakatiga shimoldan bo‘ladigan xavfni bartaraf etishni rejalashtirgandi. Puxta o‘ylangan siyosiy rejaga muvofiq u 1376 yilda boshpana so‘rab kelgan To‘yxon o‘g‘lonning o‘g‘li shahzoda To‘xtamishni tarbiyalaydi, unga harbiy madad berib, uch marta Oltin O‘rda taxtini egallash uchun yuboradi. To‘xtamish ochiq kurashlarda raqiblaridan yengilib, har gal zo‘rg‘a qochib qutuladi. Nihoyat, O‘rusxon vafot etgach, o‘rniga o‘g‘li To‘qtaqiya o‘tiradi, biroq qisqa vaqt o‘tgach, u ham o‘ldiriladi, taxtni Temur Malik o‘g‘lon egallaydi. Ichkilik va maishatga berilgan bu shahzoda obro‘sinini yo‘qotib, taxtda uzoq o‘tirmaydi. Fursat yetilganini sezgan Amir Temur To‘xtamishni 1378 yilda to‘rtinchi marta Oq O‘rda ustiga yuboradi. Bu safar u Sohibqironning madadi bilan zafar qozonib, Oltin O‘rda taxtini egallaydi, Volga bo‘ylaridagi shaharlarni ham qo‘lga kiritadi va Mamayni yengib, amalda Oq O‘rda bilan Oltin O‘rdani birlashtirgan kuchli davlatga ega bo‘ladi. U 1382 yilda Moskvaga bostirib bordi, rus knyazliklari unga tobeligini izhor etdilar. G‘arbdagi kuchli Litva knyazligi endi u bilan hisoblashishga majbur bo‘lib qoldi. G‘alabalardan boshi aylanib ketgan To‘xtamish endi sobiq homiysi Amir Temurni mensimay qo‘ydi. U 1383 yilda Xorazmda o‘z nomiga tanga zarb qildiradi.

Bu paytda Amir Temur Shimoliy Eronni fath etib, Ozarbayjonni qo‘lga kiritishga intilmoqda edi. Yuqorida aytilganidek, bir vaqtlar elxoniyalar qo‘lida bo‘lgan bu

hududlarga Sohibqironning da'vogar bo'lishi tabiiy edi. Ayni zamonda chingiziylardan bo'lgan va tobora kuchayib borayotgan To'xtamish ham bu o'lkani tasarrufiga olishga qattiq urinardi. Shunday qilib, bu boy o'lka taraflar o'rtasida nizoli masalaga aylanib bordi. To'xtamish endi Sohibqironning rejalariga oshkora qarshi chiqa boshladi. U o'z ahdini buzib, Amir Temur Samarqandga qaytgan vaqtda 1385–86 yillarda Darband va Shirvon o'lkasidan o'tib, Tabrizga bosqin qildi, katta boylik – 250 tuman oltin olganiga qaramay, shahar va qishloqlarni taladi. Bu paytda Yaqin Sharq va Kavkazda murakkab siyosiy vaziyat vujudga kelgan edi. Amir Temurning kuchayib borayotgani va kuchli markazlashgan davlat barpo etayotgani Misr mamluklari, Usmonli turklari, Qaysari–Sivas hukmdori Qozi Burhoniddin hamda omonat taxti liqillab qolgan jaloyirlar hokimi Sulton Ahmad va Qora Yusuf turkmanlarni ham birdek bezovta qila boshlagandi. Mana shu qaltis vaziyatda To'xtamish Amir Temurga qarshi birgalashib harakat qilish maqsadida Qohiraga 1385 yil yanvarda elchilar yuborgani ma'lum. Bu elchilar izzat-ikrom bilan kutib olingan. «Elchilikdan ko'zlangan maqsad esa Amir Temurga qarshi Sulton Barquqni ittifoqqa tortish bo'lganiga shubha qilmasa bo'ladi. Zero, birinchidan, Oltin O'rda va Misr mamlakatlari Ozarbayjondan sharq va janubda mujassamlashgan kuchlarga qarshi eskidan ittifoqdosh bo'lib kelganlar. Chunonchi, Eron, Ozarbayjon, Iroqni o'z tasarrufida tutgan halokuiylar zamonida bu ikki taraf manfaatlari o'zaro bordi-keldi qilishni taqozo etgandi. Oltin O'rda, yuqorida aytilganidek, Ozarbayjonga intilardi. Misrga esa halokuiylarning g'arbga qarab, ya'ni mamluklar ta'sir doirasidagi hududlar tomon harakatlarini bartaraf qilish muhim edi O'z xatlarida Misr sultoni Oltin O'rdani Kavkaz orqali Ozarbayjon va Eronga qarshi yurishga gij-gijlab bu masalada o'zi ko'makdosh bo'lishini ta'kidlagan. Ikkinchidan esa, Misr hukmdorlari (mamluklar) Amir Temurning g'arbga qarab siljib borishidan manfaatdor emasdilar va bu hol ularning To'xtamishxon bilan ittifoqqa kirishlari uchun yetarli asos bo'la oladi».

Natijalar: Ushbu yuqoridagi dalil To'xtamish Amir Temurga qarshi urushga zimdan tayyorgarlik ko'rayotganidan dalolat beradi. Mavjud sharoitda Amir Temur Ozarbayjon va Kavkazda mustahkamlanib olgandan keyingina boshqa raqiblar, jumladan To'xtamish bilan hisoblashishi mumkinligini yaxshi anglab yetdi. To'xtamish esa, vaziyatdan foydalanib, Amir Temur kuchayib ketishidan avval urushga kirib, unga zarba bermoqchi edi. 1386–87 yilning qishida Amir Temur bilan To'xtamish qo'shini Samur daryosi bo'yida yuzma-yuz to'qnashdi. Sohibqiron o'z amirlariga jangga kirmaslikni buyurganiga qaramay, qisqa muhoraba bo'ldi. Mironshoh boshchiligidagi qo'shin jangga kiringach, To'xtamish yengilib, orqaga chekindi. Ammo bu mag'lubiyat unga saboq bo'lmadi. Qishni Qorabog'da o'tkazgan Amir Temur Sharqiy Anatoliya va Van ko'li atroflarida hukm yuritayotgan Qoraqo'yunli Qora Yusuf ustiga yurish boshladi. Bu hukmdor qaroqchilikni avj oldirib, Muqaddas haj ziyoratchilari va savdo karvonlariga talafot yetkazib, kata

noroziliklar tugʻdirayotgani haqida yuqorida aytib oʻtdik Turkmanlar chekinishdi. Amir Temur yana Eronga qaytdi. Kavkazda magʻlubiyatga uchragan Toʻxtamish, Sohibqiron

Erondaligidan foydalanib, 1387 yilda Movarounnahr sarhadlariga qarab yana qoʻshin tortdi.

Sigʻnoqdan oʻtib, Sabron shahriga keldi. Axsikentdan yetib kelgan Umarshayx qoʻshini bilan Oʻtror atrofida qattiq jang boʻldi. Umarshayx yengildi. Endi Movarounnahrda Toʻxtamishga qarshi tura oladigan kuch yoʻq edi. U koʻp shahar va qishloqlarni talab Buxorogacha bordi, ammo shaharni egallay olmadi. Xorazm hokimi Sulaymon soʻfi ham Amir Temurga qarshi isyon koʻtardi. Sarkarda zudlik bilan Movarounnahrqa qaytib, tashabbusni qoʻlga olishga majbur boʻldi. Sulaymon soʻfi qochib Toʻxtamish huzuridan boshpana topdi. Vujudga kelgan siyosiy vaziyat Toʻxtamishni tiyib qoʻyishni taqozo etardi.

#### XULOSA (CONCLUSION)

Mazkur gʻalaba Amir Temurning Yaqin Sharqdagi faoliyati, harbiy strategik rejalarini amalga oshirish uchun ham katta imkoniyatlar tugʻdirdi. Endi u Movarounnahrqa Shimol va Sharqdan yogʻiladigan ulkan xavfni butunlay bartaraf etib, oʻz fuqarolari emin–erkin yashashiga yʻl ochib berdi. Kavkaz va Eron hududlarini egallab Movarounnahrni ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan boʻgʻib tashlash, yakkalantirib qoʻyish va “Mudofaa ittifoqi” kuchlari bilan birgalikda uni butunlay tormor etishni rejalashtirgan, oʻzining sobiq homiysiga hiyonat qilgan Toʻxtamishning xom hayollari amalga oshmadi. Oltin Oʻrda xoni bu magʻlubiyatdan keyin taxtni xech qachon qoʻlga kirita olmadi. Ayni zamonda Amir Temurning porloq gʻalabasi 200 yil atofida avom etgan Misr va Oltin Oʻrda oʻrtasidagi hamkorlikka barham berdi. Gʻarbda xaqli ravishda “Evropaning xaloskori” deb baholangan Amir Temurning moʻgʻul istibdodini tugallashdagi ulugʻ hizmatlari inobatga olib, “Rossiyaning ham xaloskori” deb aytishga har jihatdan yetarli asoslar bor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur jahon tarixida. Parij-Toshkent. “Oʻzbekiston”, 1996.
2. Qodirov P. Amir Temur siymosi. T., “Oʻzbekiston”, 2006.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Tarjimon Muhammad Ali Buxoriy. Soʻzboshi, tabdil, izohlar va koʻrsatkichlar mualliflari: Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997.
4. Temur tuzuklari. Oʻzbek, rus, ingliz, fransuz tillarida. Akademik B.Ahmedov tahriri ostida. /Fors tilidan A.Sogʻuniy va H.Karomatov tarjimasini. Toshkent, “Gʻ. Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti”, 1996.
5. Ismoil Aka. Amir Temur saltanati. Toshkent. “Choʻlpon”, 1996.
6. Abduraimov M.A. Temur va Toʻxtamish. Toshkent, Gʻ. Gʻulom nomidagi

Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.

7. Axmedov B., Mukminova R., Pugachenkova G. Amir Temur. – T., 1999.

8. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan Yu. Hakimjonov tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi A.O'rinboev. Toshkent, "O'zbekiston", 1996.

9. Azamat <\_0\_2 Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, "O'zbekiston", 2001.

10. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Toshkent. "O'zbekiston", 1999.

11. Evliya Chelebi. Kniga puteshestviya. Выпуск 2. – М.: Nauka, 1979.

12. Zokirov S. Diplomaticheskie otnosheniya Zolotoy Ordy s Yegipetom. – T., 1966.